

MOVARAUNNAHRDA CHIG'ATOY ULUSI DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI

Xolmamatov Najmiddin

Toshkent viloyati Zangiota tumani

Jamolova Madina

43-maktab tarix fani o'qituvchisi 43-maktab 11-sinf o'quvchisi

Annotatsiya

Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari o'z navbatida barlos, jaloyir, qovchin va orlot qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshohning yozishicha qavchinlar Amudaryo shimoli, Buxoroning sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg'oniston shimolida joylashganlar. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o'z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko'rar edi. Mo'g'ullar ko'chmanchi xalq bo'lgani uchun boshqaruv tizimini yaxshi tushunmas edilar. Shuning uchun ham bo'ysundirilgan mahalliy aholining yuqori tabaqalaridan boshqaruv ishlarida foydalanishgan.

Kalit so'zlar: Chingizxon, Chig'atoy, Mahmud Yalavoch, Mas'udbek Kepekxon, payza, suyurg'ol, yomlar, targ'u, shulen, bosqoq.

Yurtimizni hamma davrlarda ham turli bosqinchilar bosib olishga zabt etishga harakat qilishgan. Shunday bosqinchilardan Chingizxon boshliq mo'g'ullar 1219-1221 yillarda yurtimizni bosib olishdi. Boshqaruvda Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo'g'ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko'rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo'jand shahrida joylashdi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo'lib, manbalarning xabariga ko'ra uning boyligi shunchalik ko'p bo'lganki, hatto u butun Movarounnahrda olinadigan soliqni oldindan to'lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo'g'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi mo'g'ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug'alar-harbiy ma'murlar hamda bir muncha mo'g'ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va



qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o'ta boshladilar¹.

Chig'atoy ulusidan olinadigan daromadlarning asosiy qismi Qoraqurumga jo'natilgan. Qolgan qismini mahalliy aholidan tayinlangan oliy hokim ulus ehtiyojlari hamda qo'shin xarajatlari yo'lida sarf qilish huquqiga ega bo'lgan. Chig'atoy ulusida ham Chingizxon barpo etgan mo'g'ullar davlatidek mehnatkash omma nafaqat mo'g'ul bosqoqlari, dorug'alari, balki mahalliy zodagonlar va oqsuyaklar tomonidan ham ezilgan. Dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar, chorvadorlar ilgaridan mavjud bo'lgan soliqlardan tashqari mo'g'ullar joriy qilgan yangi soliq va o'lponlarni to'lashga majbur edi. Oxir oqibat Chig'atoy ulusining qishloq va shaharlarida mo'g'ullarga va yerlik zodagonlarga nisbatan noroziliklar kuchaygan, qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Chig'atoy vafotidan so'ng Mangu qoon va Botuxon Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatib, uni Tuli va Jo'ji vorislari o'rtasida taqsimlashga kelishib olishgan².

Rashiddin ma'lumotlariga ko'ra, Mo'g'ullar davlatida O'gedey hukmronligi davrida Chig'atoy butun imperiyada shu qadar kuchli hokimiyatga ega ediki, hatto buyuk xonning o'zi xam "uning maslahati va ko'rsatmalarisiz" muhim qarorlar chiqara olmas edi. Ammo, shunga qaramasdan Chig'atoy butun ulusning mustaqil hukmdori emas edi.

Musulmon manbalarida bo'lgani kabi, Xitoy manbalarida ham Chig'atoy chehrasida kulgi bo'lmagan, qaramog'idagilarni qo'rquvda ushlab turadigan, zulmkor shaxs sifatida tasvirlanadi. "Yasoqlar"ning bilimdoni va nazorat qiluvchisi bo'lgan Chig'atoy mug'ul qonunlari buzilishini juda shafqatsiz jazolagan. Musulmon qonunlari ko'pincha "Yasoq"larga mos kelmasligi tufayli u islomga yaxshi munosabatda bo'lmagan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko'ra Chig'atoyning nomi quyidagilarda saqlanib qolgan:

1. O'rta Osiyodagi mug'ul davlatining rasmiy nomlanishi atamasida.
2. Chig'atoy davlatining harbiy kuchlarini tashkil etgan ko'chmanchilar nomida.
3. O'rta asrlar O'rta Osiyoda shakllangan adabiy til nomida.
4. Joylarning nomlanishida.

Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan hududlar o'z geografik joylashuviga ko'ra, Chingizxon asos solgan ulkan saltanatning ichki va tashqi, iqtisodiy va madaniy hayoti hamda aloqalarida, elchilik munosabatlarida katta o'rin tutardi. Misol uchun,

¹ Sagdullaev A. S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent.: "Akademiya". 2000.

² Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi- T. Yangi asr avlodi. 2012.



Chingizxon va uning dastlabki vorislari davrida saltanat poytaxti bo'lgan Qoraqurum, keyinchalik Xonbaliq (Pekin) shaharlarini Dashti Qipchoqdagi Oltin O'rda va Erondagi Xulaguylar davlati bilan bog'lovchi muhim aloqa savdo yo'llari mug'ullar saltanatining markazida joylashgan Chig'atoy ulusi hududidan o'tardi. Chig'atoy ulusi hukmdorlari Buyuk ipak yo'lining markaziy yo'nalishini nazorat qilgan bo'lsa-lar, Jo'ji ulusiga bu yo'lning shimoliy yo'nalishi nazorati yuklatilgan. Bu yo'nalishda Volga bo'yi shaharlari bilan birga Xorazm vohasi ham katta o'rin tutganligi tufayli, Xorazmning g'arbiy qismi Jo'ji ulusi tarkibiga kiritilgan. Umuman olganda, Chig'atoy ulusi davrida Xitoy, Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoqdagi ko'pgina hududlarda turk-mug'ul zodagonlari savdo-tranzit yo'llari ustidan o'z nazoratlarini o'rnatadilar.

Chig'atoy ulusi tashkil topgach, Movarounnahr va Sharqiy Turkistonning madaniy viloyatlarini ulug' xon tomonidan tayinlangan Mahmud Yalavoch boshqargan. Ulug' xon shuningdek, Movarounnahrda mug'ul qo'shinlari boshliqlarini ham tayinlagan. Bu boshliqlar ko'p hollarda barlos, jaloyir, qovchin va orlot qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshoh ma'lumotlariga ko'ra, jaloyirlar Amudaryoning shimoli, Buxoroning sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlatlar Afg'onistonning shimolidajoylashganlar. Mahmud Yalavoch ham Movarounnahrda olib borgan siyosatida ko'pincha shu qabilalarga suyanib ish ko'rgan.

Chig'atoy ulusidagi harbiy bo'lmagan hokimiyat, odatda, mahalliy aholi orasidagi bilimli va yuqori mavqega ega bo'lgan shaxslarga berilgan. O'troq xalq-larni boshqarish, zodagonlarni itoatda saqlash uchun boshqaruvdagi zarur bilimlar va tajribalar kerak bo'lgan hollarda mug'ullar orasida harbiy bo'lmagan hokimiyatdagi oliy lavozimlarni egallashga qodir shaxslar deyarli yo'q edi. Juvayniy ma'lumotlariga ko'ra, Chingizxon hayotligi davridayoq mug'ul zodagonlarining yosh bolalari, hukmdor xonadonning bolalari maxsus o'qitilgan bo'lsada, Chingizxonning o'zi ham, uning avlodlari xam bilimli shaxslarga. ma'muriy boshqaruvchilar va amaldorlarga, tabiblar va olimlarga, savdogarlar kabilarga juda katta ehtiyoj sezganlar. Shuning uchun ham Qoraqurumdagi buyuk xon va ulus xonlarining saroylarida bo'ysundirilgan xalqlar vakillari, ayniqsa, musulmon madaniyati vakillari katta izzat-obro'ga ega bo'lganlar³.

Misol uchun, kelib chiqishi musulmon bo'lgan Habash al-Hamid (ayrim ma'lumotlarda o'trorlik, ayrimlari karmanalik deyiladi), Chig'atoyning maslahatchisi bo'lgan. Chig'atoy ulusining xarbiy bo'lmagan boshqaruvi xorazmlik

³ Xodjaev T.K. Kratkie itogi izucheniya antropologii Sredney Azii v svyazi s problemamg etnogeneza uzbekskogo naroda. Sb. «Materialn k etnicheskoy istorii naseleniya Sredney Aziya Izd. «Fan», T.: 1986. S. 93.



Mahmud Yalavochga, keyin esa uning o'g'li va nabiralariga topshirilgan. Mug'ulistonning o'zida va Chig'atoy ulusida bo'lib turgan noroziliklarga qaramay Yalavoch xonadoni Movarounnahr va Sharqiy Turkistondagi boshqaruvni XIV asr boshlariga qadar o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Shuning uchun ham manbalarning ma'lumot berishicha, Chig'atoy mug'ul zodagonlari Movarounnahrdagi mahalliy zodagonlar, amaldorlar va savdogarlar orasidan tajribali ma'murlar, soliq yig'uvchilar va boshqaruvchilarni topishda qiynalmaganlar. Shu sabab bo'lsa kerakki, asta-sekinlik bilan Buxoro sadrlari, Termiz sayidlari, Shosh, Taroz, O'tror, Xo'jand maliklari o'z mulklariga egalik qilishni tiklab oladilar.

Chig'atoy ulusiga dastlabki noib etib tayinlangan Mahmud Yalavoch ixtiyorida mug'ullarning tayanchi bo'lgan soliq yig'uvchi mug'ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, harbiy ma'murlar - dorugalar hamda mug'ul harbiy bo'linmalari bor edi. Yalavoch Xo'jandda turib o'z qo'l ostidagi harbiy bo'linmalari yordamida davlatni boshqargan va soliqlar yig'gan. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar va ruhoniylar vakillari boshqaruvni o'z qo'llariga olgan edilar. Ular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Mahmud Yalavoch davridayoq (1227-1239 yy.) ko'pchilik aslzoda zoda-gonlar, savdogarlar va qisman ulamolar xam o'z jonlari hamda qolgan mol-mulklarini saqlab qolish maqsadida mug'ullar xizmatiga o'ta boshlagan edilar. Ulusda o'zlarini tayanch va qo'llab-quvvatlovchi kuchlari bo'lishini xohlagan mug'ul hukmdorlari ham bu toifadagi kishilarga rahnamolik qilar edilar.

Chigatoy ulusida viloyat hukmdorlari **xon**, oliy hukmdorlar esa **qoon** yoki **xoqon** deb yuritilgan bo'lib, ular davrida o'lponu soliqlar miqdori osha borib, yangi soliqlar xam joriy etila boshlanadi. Misol uchun, manbalarga ko'ra, bu davrda yangi yer solig'i- **kalon** joriy etilib, bu soliq hosilning undan bir qismi miqdorida olingan. Mug'ullarning 1235 yilgi qurultoyidan so'ng esa har bir bosh chorva molidan olinadigan soliq **qopchur** joriy etiladi. Unga ko'ra, har 100 chorvadan bittasi soliqqa to'langan. Shuningdek "Yasoqlar"ga ko'ra, davlat xazinasini uchun **shulen** yoki **shulsi** solig'i joriy etilgan. Bu soliq chorvadorlardan har suruvdan bir qo'y va qimiz uchun har ming bosh otdan bitta biya undirilgan.

Bu davrda hunarmandlarning xam ahvoli yaxshi emas edi. Ular mahalliy xonlarning mulki sifatida qullarcha ishlatilishi bilan birga, soliqqa ham tortilgan edilar. Hunarmandlardan va savdogarlardan olinadigan soliq **targ'u yoki tamg'a** deb atalgan. Bu soliq ishlab chiqarilgan hamda sotilgan mahsulotning o'ttizdan bir ulushi hajmida bo'lgan. Chig'atoy ulusi davrida yer egaligi munosabatlari ham o'zgarib, yangi in'om etilgan erlar **suyurg'ol** nomini olgan edi. Suyurg'ol hajmi jihatdan



(uning tarkibida juda katta yer maydonlari va suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirgan) iq'todan farq qilgan. Bu davrdagi davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf(diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ko'p hollarda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bunday ijarador o'rtahol dehqonlar **muzariylar** deb atalgan⁴.

Buyuk Xoqon O'gedey (1229-1241 yy.) davridayoq mug'ullar o'zlarining xizmatida bo'lgan ayrim zodagonlarga, katta yer egalari va savdogarlarga **barot** (ijara yorlig'i) va **payzalar** bera boshlangan edilar. Payzalar qimmatbaho metallar (oltin, kumush, bronza) yoki yog'och taxtachalardan ishlangan bo'lib, unga no'yonning muhri qo'yilgan. Bunday payzaga ega bo'lgan kishilar, shu jumladan elchilar, soliqchilar va boshqa shaxslar aholidan turli yiish, to'lovlarni talab qilib olish xuquqiga ega ediyaar. Shuningdek payza egalari aholidan ot-ulov, yem-xashak, yotar joy, oziq-ovqat talab qilishga haqli edi. Savdo yo'llarida joylashgan bekatlar **yom(jom)** ularning xizmati aholi bo'ynida edi. 1235 yilgi xoqon farmoniga ko'ra, har bir yomdagi aloqa xizmati ikki tuman aholisiga yuklatiladi. Ikki tuman aholisi yom uchun 20 bosh ot, so'yishga qo'y - echki, sog'ishga biyalar, arava va boshqa anjomlar ajratishlari lozim edi.

Mahalliy axoli-hunarmand, dehqon, chorvador, kim bo'lishidan qat'iy nazar umumhashar ishlarida qatnashishi va tekinga ishlab berishi shart edi. Aholiga o'tkazilayotgan jabr-zulm mug'ullarga qarshi norozilik isyoniga olib keldi.1238 yil Buxoro atrofidagi Tarob qishlog'ida Mahmud Tarobiy boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Ammo, qo'zg'olonchilar ayrim g'alabalarga erishgan bo'lsalarda, ko'p o'tmay mug'ullarning Eldo'z no'yon va Chag'an qo'rchi boshliq harbiy kuchlari qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostiradilar. Mahmud Tarobiy ham halok bo'ladi.

Mahmud Tarobiy qo'zg'olonidan so'ng Chig'atoy Mahmud Yalavochni o'z amalidan chetlashtiradi va ko'p o'tmasdan xoqon uni Pekin (Dasin) shahriga noib qilib jo'natadi. Movarounnahrning noibi qilib esa uning o'g'li Ma'sudbek tayinlanadi⁵.

XIII asrning 60-70-yillarida mug'ullar orasida o'zaro kurashlar kuchaygan bo'lishiga qaramay, bosib olingan hududlardan mug'ul harbiy sarkardalari, no'yonlari, zodagonlari orasida siyosiy dunyoqarash o'zgara boshlaydi. Ya'ni, ba'zi xonlar, harbiylar, zodagonlar va savdogarlarga o'troq hayotga o'tish istagi kuchaya boshladi⁶. Mug'ul zodagonlari dehqonchilik va savdo-sotiq xazinaning asosiy

⁴Эшов Б. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi- T. Yangi asr avlodi. 2012

⁵ Bosvort K.E. "Musulmon sulolalar" T.: 2007.

⁶ A.Zamonov " O'rtal asrlar tarixiy shaxslarining ayrim noma'lum sahifalari" T.:2020.



manbai ekanligini tushuna boshlagan edilar. Undan tashqari, XIII asr oxirlariga kelib ko'chmanchi hayot tarzida bo'lgan Chig'atoy xonlari qo'lida aholi solig'i va xirojlardan tushgan mablag'lar hamda o'ljalar ko'payib ketib, ko'chmanchilik sharoitida, tinimsiz urushlar va ko'chmanchi zodagonlar isyonlari sharoitida xazinani saqlash qiyin va xatarli bo'lib qolgan edi.

Bu davrda xo'jalik-iqtisodiy hayotni bir me'yorga tushirish, savdo va pul muammosini izga solishda Ma'sudbekning xizmati va islohotlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ma'sudbek 1271 yili mug'ullarning madaniy-o'troq hayot tarafdorlari madadi hamda Talas qurultoyi (1269y.) qarorlariga tayanib, moliyaviy, ya'ni, pul islohoti o'tkazishga kirishdi. Bu islohotta ko'ra, Chig'atoy ulusining barcha shahar va tumanlarida bir xil vazndagi kumush tangalar zarb etish va muomalaga kiritish yo'lga qo'yildi. Bu islohotning asosiy mohiyatini tashkil etar edi. Bu holat ichki savdo va ichki munosabatlarni tartibga solardi. Shuningdek kumush tangalar zarb etish erkinligi paydo bo'ladi. Ya'ni, xohlagan kishi o'z ixtiyoridagi kumush buyumlarni zarbxonaga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat va vaznda zarb etishi mumkin edi. Bu jarayon dastlab qiyin kechgan bo'lsada, asta-sekin faollasha borib, aholining kumush tangalarga ishonchi mustahkamlandi, bunday tangalarning nufuzi ortib bordi. Natijada XIII asrning 80-90-yillarida Chig'atoy ulusining 16 ta shahrida zarbxonalar ochilib, ularda doimiy ravishda kumush tangalar zarb etilgan ⁷.

Bu davrda Eronda va Yettisuvda mug'ul harbiy zodagonlari vayronagarchilik kelitirib chiqaruvchi urushlar qilib turgan bo'lsalarda, ularning bu xarakatlari Movarounnahrda islohotlarni to'xtata olmadi. Chunonchi, 1273-76 yillarda Ma'sudbek vayron etilgan Buxoroni qayta tiklash ishlarini amalga oshirdi. Natijada Buxoroda iqtisodiy xayot, savdo-sotiq tiklanib 1273-82-yillar Buxoro zarbxonalari to'liq ishlay boshladi. Savdo - iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan Farg'ona vodiysida esa Chig'atoy xoni Duvaxon (1291-1306 yy.) davrida Andijon shahriga asos solindi. XIV asrning boshlariga kelib Chig'atoy davlati xonlari o'z xazinalarini saqlash uchun shaharlar tanlay boshlaydilar yoki o'zlari yangi shaharlarga asos sola boshlaydilar⁸. Chig'atoy xonlaridan birinchi bo'lib Kebekxon (1309, 1318-1326 yy.), madaniy xayotga yaqinlashib, o'troq turmush tarziga o'tgan edi. U Naxshab shahri atrofida o'ziga saroy qurdirdi va bu saroy (Qarshi) keyinchalik Kebekxon va uning atrofdagilarning doimiy qarorgohiga aylandi. Shu tariqa Chig'atoy


⁷ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi- T. Yangi asr avlodi. 2012.

⁸ Sagdullaev A. S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakqiyoti. Toshkent.: "Akademiya". 2000. 128-bet.



zodagonlari Movarounnahrdaqi markazlarga o'troqlashib bordilar. O'z davrida Kebekxon davlatni idora etish, uning ma'muriy tuzilishini qayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni kayta tartibga solish maqsadida ikki xil: ma'muriy va moliyaviy islohotlar o'tqazdi.

Chig'atoy davlatining boshqaruv tizimi



Ma'muriy islohotga ko'ra, mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar — maliklar, sadrlarning o'rinlari turkiy-mug'ul urug boshliqlari qo'liga o'tdi. Noiblik esa merosiy bo'lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o'zining ijobiy samarasini berdi.

Ma'sudbek davrida amalga oshirilgan pul islohotini takomillashtirish, savdogarlarning pul muomalasidagi ayrim boshboshdoqliklariga barham berish maqsadida Kebekxon pul islohotini ham o'tkazadi. Bunga qadar tanga pullar Chig'atoy ulusining ko'plab shaharlarida mahalliy zodagonlar nomidan zarb etilardi. Kebekxon Xulagiylar va Oltin O'rda tangalariga taqlidan ikki xil: yirik kumush tanga - dinor va mayda kumush tanga - dirham zarb ettirishni yo'lga qo'ydi. Kebekxon tomonidan yagona umudavlat pullari muomalaga kiritilib, ular Kebekxon



nomidan (kepakiy) asosan Buxoro, Samarqand va O‘ror zarbxonalarida zarb etilgan⁹.

Chig‘atoy davlatida ulus hukmdorlari va Chingiziylar XIV asrning boshlariga qadar ko‘chmanchilar hukmdorlari bo‘lib qoldilar va Movarounnahrning ichki boshqaruviga bevosita aralashmaganlar. Chig‘atoy ulusida umuman olganda, ilgarigi ijtimoiy tuzum saqlanib qolgan va ayrim viloyatlar xamda shaharlardagi (Buxoro, O‘ror, Shosh, Xo‘jand, Farg‘ona, Talas) mahalliy boshqaruvda mug‘ullargacha bo‘lgan mahalliy aholi vakillari turgan. Ular Kebekxon davrigacha maliklar unvonida bo‘lib, mustaqil boshqaruvni amalga oshirganlar va o‘z viloyatlarida tangalar zarb etganlar¹⁰.

Manbalar mahalliy hokimlar va Chig‘atoy ulusining o‘troq viloyatlari oliy hukmdorlari o‘rtasidagi munosabatlar haqida to‘liq ma‘lumotlar bermaydi. Shuningdek, ulusdagi maliklar va sadrlar hamda mug‘ullardagi dorug‘achilar o‘rtasidagi munosabatlar ham uncha aniq emas. Aftidan, dorug‘achilar bo‘ysundirilgan shaharlarni mahalliy hokimlar bilan birgalikda boshqarganlar. Movarounnahr bosib olinganidan so‘ng Chingizxon barcha shaharlarda dorug‘achilarni qo‘yib, keyinchalik ularga aholini ro‘yxatga olish, mahalliy aholi orasidan qo‘shin yig‘ish, pochta aloqalarini yo‘lga qo‘yish, turli soliqlar, o‘lponlar va yig‘inlar to‘plash xamda ularni saroyga etkazish vazifasi yuklatilgan.

Chig‘atoy ulusining ijtimoiy-siyosiy xayotidagi muhim davrlardan bo‘lib qolgan siyosiy xayotdagi bunday tizim XIV asr boshlariga qadar saqlanib qoldi. Mug‘ul shahzodalari musulmon madaniyati an‘analarini qabul qila borib, asta-sekinlik bilan ko‘chmanchilar an‘analari bilan aloqani uzib, Movarounnahrning turli viloyatlariga joylasha boshlaydilar. Misol uchun, Iloq vodiysining Ohangaron deb atala boshlashi va bu yerda o‘zbek - quramalarning paydo bo‘lishi mug‘ullar davriga to‘g‘ri keladi. Chig‘atoy o‘zbeklari degan tushunchaning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan Muborakshoh (Chingizxonning nabirasi, Chig‘atoyning o‘g‘li) 1246 yilda hozirgi Ohangaron shahri yaqinidagi Shavkat (qad. Sakokat) degan shaharchada qarorgoh qurib, mug‘ul hukmdorlari orasidan birinchilardan bo‘lib musulmonchilikni qabul qiladi va mahalliy aholi bilan juda yaqin qavm-qarindoshlik aloqasiga kirishadi. U hattoki, o‘zi mansub bo‘lgan Olmaliq urug‘i vakillarining katta qismini Mug‘ulistondan ko‘chirib keltirib, Sakokatning qarshisidagi daryoning so‘l sohilida,

⁹ A.Zamonov "O‘rta asrlar tarixiy shaxslarining ayrim noma‘lum sahifalari" T.:2020.

¹⁰ Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi- T. Yangi asr avlodi. 2012.



sero't adirlarga joylashtiradi. O'sha qavm tufayli Olmaliq degan shahar xozir O'zbekistonda ham, Mug'ulistonda ham mavjud.

O'z davrida Kebekxon o'tkazgan islohotlar o'troq hayot, mahalliy aholi bilan yaqinlashuvga ko'pdan beri qarshi bo'lgan guruhlarning ham faoliyatini kuchaytirib yuboradi. 1326-1334 yillarda hukmronlik qilgan Tarmashirin Muborakshox va Kebekxon siyosatini davom ettiradi. U butun Movarounnahr, Ettisuv va Sharqiy Turkistonda xukmronlik qilish jarayonida islomni rasmiy din deb e'lon qiladi va mazkur xududlar axolisini islomga majburan da'vat etadi. Tarmashirin siyosatidan norozi bo'lgan ko'chmanchi mug'ul zodagonlari isyon ko'tarib, 1334 yilda uni o'ldiradilar ¹¹.

Xullas, XIV asrning 40-yillariga kelib, o'zaro urushlar natijasida Chig'atoy davlatining inqirozi ko'zga tashlanib qolgan edi. Davlatning so'nggi xonlaridan biri Qozonxon (1343-1346 yy.) markaziy xokimiyat ta'sirini kuchaytirishga harakat qilib, o'ziga amir unvonini olib, davlat boshqaruvida qattiq siyosat olib borgan bo'lishiga qaramay o'zaro kurashlar avj olishi natijasida Kesh (Shaxrisabz) va uning atrofidagi yerlar Hoji Barlos boshchiligidagi barlos urug'i, Xo'jand Boyazid Jaloiriy boshchiligidagi jaloyirlar qo'liga o'tdi¹². Balx va uning atrofidagi yerlar Qozonxonning nabirasi Amir Husayn qo'liga o'tdi. Shibirg'onda Muhammadxo'ja Apverdi xokimiyatni qo'lga oldi. Shuningdek, Buxoroda sadrlar, Xuttalondan mahalliy xokimlardan bo'lgan Kayxusrav, Termizda sayidlar, Choch va Farg'onada maliklar, Badaxshonda mahalliy hukmdorlar xokimiyatni qo'lga oldilar. Ular o'rtasida doimiy ravishda kurashlar va nizolar bo'lib turdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar bosqinchilari yurtimizdagi shahar va qishloqlarni vayron qilib tashladi. Odamlarni qirib o'ldirib bir qismini o'zining davlati Mo'g'ulistonda ishlatish uchun asirga olib qul qilib ishlatish uchun olib ketdi. Chingizxon Movarounnahrni ulus qilib ikkinchi o'g'li Chig'atoy berdi. Chig'atoy va undan keyingi xonlar davrida mo'g'ul amaldorlari bilan birgalikda mahalliy aholining yuqori tabaqalaridan foydalanib boshqarishgan. Chig'atoy ulusi davrida aholiga jabr-zulm, soliqlar, hasharlarning ko'pligi xalqning tinka madorini quritdi. Vatanimizni mo'g'ul bosqinchilaridan buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomiz ozod qilib vatanimizni taroqqiyot yo'liga olib chiqdi.

¹¹ Mirzo Ulug'bek. "To'rt ulus tarixi" - T.: 1994.

¹² Bosvort K.E. "Musulmon sulolalar" T.: 2007.



Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Bo'riev O. Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»sida Markaziy Osiyo aholisining etnik-hududiy holati haqida ma'lumotlar. O'zMU xabarlari. - T.: 2013.
3. Mirzo Muhammad Haydar. «Tarixi Rashidiy» — T.: 1996.
4. Sagdullaev A. S. va boshq. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent.: "Akademiya". 2000.
5. Abulg'ozzi Bahodirxon. "Shajarai turk" T.: 1992.
6. Shoniyozov K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. T.: 1974. S.
7. Shoniyozov K. Uzbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: «SHarq», 2001.
8. Mirzo Ulug'bek. "To'rt ulus tarixi" -T.:1994.
9. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi- T. Yangi asr avlodi. 2012.
10. Bosvort K.E. "Musulmon sulolalar" T.: 2007.
11. Ne'matulla Ibrohimov. "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati" T.:1993
12. A.Zamonov " O'rta asrlar tarixiy shaxslarining ayrim noma'lum Sahifalari" T.:2020.

